

CHET DAVLAT HUDUDIDA INSON HUQUQLARI OMMAVIY RAVISHDA BUZILGAN TAQDIRDA FUQAROLARNI HIMoya QILISHNING XALQARO HUQUQIY VOSITALARI.

Axmadjonova Asilaxon Akramjanovna

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti A potok 1-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14182254>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada chet davlat hududida inson huquqlari ommaviy ravishda buzilgan holatlarda fuqarolarni himoya qilish bo'yicha xalqaro huquqiy vositalar tahlil qilinadi. Xususan, "Himoya qilish majburiyati" (R2P) tamoyili, BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari, xalqaro sudlar va tribunalarning qarorlari kabi asosiy xalqaro mexanizmlar ko'rib chiqilmoqda. Tadqiqotda xalqaro hamjamiyatning inson huquqlarini buzilishiga qarshi qabul qilgan choralar va bu vositalarning samaradorligi baholanadi. Shuningdek, xalqaro siyosiy manfaatlarning xalqaro huquqiy vositalar qo'llanishiga ta'siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq, inson huquqlari, himoya qilish majburiyati, xalqaro sudlar, BMT, gumanitar aralashuv.

INTERNATIONAL LEGAL MEANS OF PROTECTION OF CITIZENS IN CASE OF MASS VIOLATION OF HUMAN RIGHTS ON THE TERRITORY OF A FOREIGN COUNTRY.

Abstract. This scientific article analyzes international legal mechanisms for protecting citizens in cases of mass human rights violations in foreign countries. Specifically, the study examines key international mechanisms, such as the "Responsibility to Protect" (R2P) principle, United Nations Security Council resolutions, and decisions of international courts and tribunals. The research evaluates the measures taken by the international community against human rights abuses and assesses the effectiveness of these mechanisms. Furthermore, the article explores the impact of international political interests on the application of international legal tools.

Keywords: international law, human rights, responsibility to protect, international courts, UN, humanitarian intervention.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ СРЕДСТВА ЗАЩИТЫ ГРАЖДАН В СЛУЧАЕ МАССОВОГО НАРУШЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА НА ТЕРРИТОРИИ ИНОСТРАННОГО ГОСУДАРСТВА.

Аннотация. В данной научной статье анализируются международно-правовые механизмы защиты граждан в случае массового нарушения прав человека на территории иностранного государства. Особое внимание уделено принципу «Ответственности за

защиту» (R2P), резолюциям Совета Безопасности ООН и решениям международных судов и трибуналов. В исследовании рассматриваются меры, принимаемые международным сообществом для предотвращения нарушений прав человека, а также оценивается эффективность этих механизмов. Также анализируется влияние международных политических интересов на применение международно-правовых инструментов.

Ключевые слова: международное право, права человека, ответственность за защиту, международные суды, ООН, гуманитарное вмешательство.

Kirish

Inson huquqlari himoyasi zamonaviy xalqaro huquqning asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Davlat o‘z hududidagi barcha fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash majburiyatiga ega. Lekin, ayrim hollarda davlatlar inson huquqlarini ommaviy ravishda buzishi, xalqaro hamjamiyat esa bunday buzilishlar qarshisida fuqarolarni himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rishi lozim bo‘ladi. Mazkur inshoda, inson huquqlarini ommaviy buzish holatida xalqaro huquqiy vositalar qanday qo‘llanishi va bu borada xalqaro mexanizmlarning ahamiyatiyoriltiladi.

Inson huquqlari xalqaro huquqning eng asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. BMT Nizomi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlar davlatlarning fuqarolarining asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish majburiyatini belgilaydi. Biroq, ayrim hollarda davlatlar o‘z fuqarolarini himoya qilish majburiyatlarini bajarmaydi yoki beparvolik qiladi.

Ayniqsa, genotsid, etnik tozalash, insoniyatga qarshi jinoyatlar va urush jinoyatlari sodir etilganida xalqaro hamjamiyatning aralashuvi zarur bo‘lib qoladi.

Fuqarolarni chet davlat hududida sodir bo‘layotgan inson huquqlarining ommaviy ravishda buzilishidan himoya qilish xalqaro huquq uchun jiddiy masala bo‘lib, bu borada bir qator xalqaro huquqiy vositalar mavjud. Xususan, Himoya qilish uchun javobgarlik (Responsibility to Protect, R2P), BMT Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari, xalqaro sudlar va tribunalarning qarorlari kabi vositalar xalqaro hamjamiyatga inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu holatda inson huquqlari ommaviy ravishda buzilgan hollarda xalqaro huquqiy vositalarni tahlil qiladi va ularning samaradorligini baholaydi.

Asosiy qism 1. Inson huquqlari himoyasi borasidagi xalqaro huquqiy asoslar Xalqaro huquq doirasida inson huquqlari himoyasiga qaratilgan bir qator asosiy hujjatlar mavjud.

Ularning eng asosiyлари: 1948-yil qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.

1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt.

Mazkur hujjatlar davlatlarning o‘z fuqarolarining asosiy huquqlarini ta’minlash majburiyatini yuklaydi va inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiy mexanizmlarini yaratadi.

2. "Himoya qilish majburiyati" tamoyili

2005-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Himoya qilish majburiyati" tamoyili inson huquqlarini ommaviy buzish hollari yuz berganda xalqaro hamjamiyatning aralashishiga huquqiy asos yaratadi. Ushbu tamoyil quyidagilarni nazarda tutadi.

Har bir davlat o‘z fuqarolarini genotsid, etnik tozalash, insoniyatga qarshi jinoyatlar va urush jinoyatlaridan himoya qilish majburiyatiga ega.

Agar davlat ushbu majburiyatni bajara olmasa yoki bajarishni istamasa, xalqaro hamjamiyat BMT Xavfsizlik Kengashi orqali tinchlikparvar kuchlar kiritish yoki boshqa chorallardan foydalanishi mumkin.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari ilk bor BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan.

Ularning mazmuni 1970-yili Bosh Assambleyada qabul qilingan BMT Ustaviga muvofiq do'stona munosabatlар va hamkorlikka taalluqli muhim hujjat —Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi deklaratsiyada, shuningdek, 1975-yildagi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Yakunlovchi aktida oolib berilgan va rivojlantirilgan.

Bundan tashqari, xalqaro huquqning bir qator prinsiplariga bag'ishlangan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyalari ham mavjud. Xalqaro huquq asosiy prinsiplarining aniq soni yuzasidan huquqshunos olimlar hozircha yakdil xulosaga kelolganlari yo'q.

1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiya quyidagi yettita asosiy prinsipni qamrab olgan: 1) kuch ishlatmaslik; 2) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; 3) aralashmaslik; 4) hamkorlik; 5) xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi; 6) suveren tenglik; 7) xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish. Xalqaro huquqda amalda bo‘lgan prinsiplar universal va mintaqaviy (ularni e’tirof etadigan subyektlar doirasidan kelib chiqib), umumiy va sohaviy (ular amal qiladigan sohalar bo‘yicha) prinsiplarga bo‘linadi. Yuridik normalar va institutlar bilan birgalikda prinsiplar xalqaro huquqning murakkab ko‘rinishdagi yaxlit tizimini tashkil etadi. Xalqaro huquq doirasida prinsiplarning xilma-xil turlari bilan farqlanadi. Ular orasida g’oya-prinsiplar muhim o‘rin tutadi.

Tinchlik va hamkorlik, gumanizm, demokratiya g’oyalari shular jumlasidandir. Ular BMT Ustavida, Inson huquqlari to‘g‘risidagi paktlarda va boshqa qator hujjatlarda o‘z aksini topgan.

G’oya —prinsiplar o‘z faoliyatining asosiy ko‘lamini aniq normalar orqali, ularning

mazmunida aks ettirish va faoliyatini yo'naltirishyo'li bilan ro'yobga chiqaradi. Shuningdek, xalqaro huquqning sohaviy tamoyillari mavjud. BMT Xalqaro sudi dengiz huquqi prinsiplariga bir necha bor havola qilganki, ushbu huquq sohaning bir qator umumiylarini anglatadi.

Aksariyat xalqaro soha olimlarining fikricha, sohaviy tamoyillarining mavjudligi xalqaro huquq sohasiga xos bo'lgan zarur belgi demakdir. Prinsiplarning shakllanish va faoliyat ko'rsatish borasidagi o'ziga xosligi ko'pincha shu yo'l bilan belgilanadiki, ular jahon tartib-qoidalari va xalqaro huquqning eng muhim asoslarini aks ettiradi hamda mustahkamlaydi. Ular zaruriy huquq (Jus Necessitatis) sifatida namoyon bo'ladi. Tamoyillar ichida xalqaro huquqning asosiy prinsiplari (jus cogens) ajralib turadi. Ular umumiylar mazmun kasb etuvchi universal imperativ normalar hisoblangan xalqaro huquq tartibotining poydevorini tashkil etadi. Diplomatiya amaliyotida, odatda, ular xalqaro munosabatlar prinsiplari, deb yuritiladi. 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 58-moddasiga muvofiq "Jus Cogens" (umumiylar xalqaro huquqning imperativ normasi) normasi deganda, davlatlar xalqaro hamjamiyati tomonidan butun holda norma sifatida

International scientific-online conference: qabul qilingan va tan olingan, undan chekinish mumkin bo'limgan umumiylar xalqaro huquq normasi anglanadi; u faqat umumiylar xalqaro huquqning xuddi shunday xususiyatga ega keyingi normasi bilan o'zgartirilishi mumkin. Jus cogens normalarining boshqa imperativnormalardan farqi shundaki, jus cogens normalaridan har qanday chekinish davlatlar xatti-harakatini ahamiyatsiz qiladi. Jus cogens normalariga doim rioya qilinishi va ular xalqaro munosabatlaming har qanday sohasida qo'llanishi zarur. Umumiylar xalqaro huquq normalari uning asosiy prinsiplari jus cogens normalari hisoblanadi. Davlat tomonidan biron-bir asosiy prinsipning buzilishini xalqaro hamjamiyat butun xalqaro huquq tartibotiga tajovuz sifatida baholashi mumkin. Prinsiplarning o'ziga xos jihatlaridan biri ulaming o'zaro bog'liqligidir.

Prinsiplar mazmunitagi umumlashganlik darajasining yuksakligi ularidan har birining talablarini boshqalarning mazmunini qiyoslab ko'rish yo'li bilan qo'llash mumkinligini ko'zda tutadi.¹

Usullar

Ushbu ilmiy ishda huquqiy tahlil usuli qo'llaniladi. BMTning asosiy hujjatlari, Xavfsizlik

¹ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ЖИНОЯТЛАРИ
ХАҚИДАГИИШЛАРНИЮРИТИШ(КИЁСИЙХУҚУҚИЙТАХЛИЛ) –
тема научной статьи по наукам о Земле и смежным экологическим наукам читайте бесплатно текст научно-исследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка (cyberleninka.ru)

Kengashining rezolyutsiyalari, xalqaro sud va tribunal qarorlari, shuningdek, xalqaro huquqiy konvensiyalar asosiy manbalar sifatida olinadi. Bundan tashqari, xalqaro huquq bo'yicha yetakchi olimlarning ilmiy ishlari va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari ham o'rganiladi. Tadqiqot doirasida inson huquqlari ommaviy ravishda buzilgan davlatlarda xalqaro hamjamiatning aralashuvi va uning huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Ruanda genotsidi (1994), Yugoslaviya parchalanishi, Liviyadagi aralashuv (2011) va Suriyadagi inson huquqlari buzilishlari kabi xalqaro tajribalar misol sifatida keltiriladi.

Xalqaro huquqiy vositalar

1. Himoya qilish uchun javobgarlik R2P tamoyili xalqaro huquqiy vositalarning eng dolzarblaridan biri hisoblanadi. Bu tamoyil davlatlarning o'z fuqarolarini himoya qilish majburiyatini ta'kidlaydi va agar davlat bu majburiyatni bajarmasa, xalqaro hamjamiat tomonidan aralashuvga asos yaratadi. R2P tamoyili 2005 yilda BMT Bosh Assambleyasи tomonidan qabul qilingan va xalqaro huquqiy javobgarligini xalqaro darajada mustahkamlaydi va xalqaro aralashuvga huquqiy asos yaratadi. Liviyadagi 2011-yilgi harbiy aralashuv R2P tamoyilining amaliy tatbiqi bo'lib, bu aralashuv xalqaro hamjamiatning inson huquqlari himoyasidagi faolligini ko'rsatadi.

2. BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari

BMT Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mas'ul bo'lgan asosiy xalqaro organlardan biridir. Inson huquqlari ommaviy ravishdabuzilgan hollarda, Xavfsizlik Kengashi aralashuv yoki xalqaro choralarini ko'rish haqida rezolyutsiyalar qabul qilishi mumkin. Masalan, Liviya bo'yicha 1973-rezolyutsiya Xavfsizlik Kengashining inson huquqlari buzilishiga qarshi xalqaro aralashuvni oqlashda qanday rol o'ynaganligini ko'rsatadi.

3. Xalqaro sudlar va tribunalarning roli

Xalqaro sudlar va tribunallar inson huquqlarini himoya qilishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC) va Xalqaro Inson Huquqlari Sudi kabi organlar inson huquqlari buzilgan hollarda jinoyatchilarni adolat oldida javobgarlikka tortish uchun huquqiy mexanizmlar yaratadi. Masalan, Yugoslaviyaning sobiq prezidenti Slobodan Miloshevich Xalqaro Jinoyat Tribunalida insoniyatga qarshi jinoyatlar uchun sud qilingan. Shuningdek, Ruanda uchun maxsus xalqaro tribunal Ruandadagi genotsid uchun javobgar shaxslarni sudqilishda muhim rol o'ynagan. Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro huquqiytamoyillari

Suverenitet va inson huquqlari o'rtasidagi balans

Xalqaro huquqda davlat suvereniteti asosiy tamoyillardan biridir. Bu tamoyildavlatlarga o'z hududida mustaqil qarorlar qabul qilish huquqini beradi. Lekin, inson huquqlari ommaviy ravishda buzilganda xalqaro huquq suverenitet tamoyilinichecklashi mumkin.

“Himoya qilish majburiyati” kabi tamoyillar davlatlar o‘z fuqarolarini himoya qilishda suverenitet cheklanishi mumkinligini anglatadi. Bu davlatning fuqarolarini himoya qilishdagi mas’uliyatini xalqaro darajada ta’minlaydi.

Xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari o‘rtasidagi farq

Gumanitar huquq qurolli mojarolar davrida qo‘llaniladigan qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Xalqaro inson huquqlari huquqi esa tinchlik davrida davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Har ikkala huquq tizimi insoniyatga qarshi jinoyatlar va boshqa huquqbazarliklarni oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, qurolli mojarolar davomida inson huquqlari buzilsa, xalqaro gumanitar huquq talablari kuchga kiradi.

Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha xalqaro tashkilotlarning roli Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)

BMT xalqaro huquq doirasida inson huquqlarini himoya qilish uchun keng ko‘lamli vositalarga ega. BMT Inson huquqlari kengashi, BMT Xavfsizlik Kengashi va BMT Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasi davlatlar o‘rtasidagi mojarolarni va inson huquqlari buzilishlarini nazorat qiladi. Xususan, Inson huquqlari kengashi davlatlardagi inson huquqlari holatini o‘rganib, monitoring va hisobotlar chiqaradi.

Xalqaro Jinoyat Sudi (ICC)

Xalqaro Jinoyat Sudi insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va genotsid sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortadi. Bu sud inson huquqlari ommaviy buzilishlarida alohida rol o‘ynaydi va davlatlar, shuningdek, fuqarolarni himoya qilishga xizmat qiladi. Shu orqali xalqaro hamjamiyat jinoyatchilarni jazolashda qat’iy munosabat bildira oladi.

Inson huquqlari buzilishlariga nisbatan davlatlarning javobgarligi, Davlatlar xalqaro huquqqa binoan o‘z hududida sodir etilgan inson huquqlari buzilishlari uchun javobgardir. Agar davlat o‘z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmasa, xalqaro hamjamiyat quyidagi choralar ni ko‘rishi mumkin:

Diplomatik bosim va sanktsiyalar: Xalqaro hamjamiyat inson huquqlarini buzgan davlatlarga iqtisodiy va diplomatik sanktsiyalar qo‘yishi mumkin. Bu vosita orqali davlatning inson huquqlariga hurmat qilishini ta’minlashga harakat qilinadi.

Inson huquqlari monitoringi va ekspert guruhlari: Xalqaro tashkilotlar davlatdagi vaziyatni kuzatish va hisobot tayyorlash uchun ekspert guruhlarini jo‘natadi. Bu guruhlar inson huquqlari buzilishlarini aniqlaydi va hujjatlashtiradi.

Tinchlikparvar kuchlarni jo‘natish: Xalqaro miqqosda xalqaro harbiy yoki tinchlikparvar kuchlar xalqaro tashkilotlar orqali yuborilishi mumkin. Masalan, BMT xavfsizlik Kengashi o‘zining tinchlikni saqlash missiyalari orqali inson huquqlarini himoya qilishda ishtiroy

etadi.

4. Gumanitar aralashuvning xalqaro huquqiy asoslariitar aralashuv inson huquqlari jiddiy buzilgan holatlarda xalqaro hamjamiyatning aralashuvini oqlash uchun qo'llaniladigan vositalardan biridir. Bu vosita xalqaro huquqda aniq belgilangan bo'lmasa-da, xalqaro amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Humanitar aralashuvning huquqiy asoslari ko'pincha BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari orqali mustahkamlanadi. Humanitar aralashuvning asosiy maqsadi inson huquqlarining ommaviy buzilishlarini to'xtatish va tinchlikni tiklashdir.²

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro huquqiy vositalar inson huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'yaydi, ammo ularning samaradorligi xalqaro siyosiy manfaatlarga bog'liqdir.

R2P tamoyili va BMT Xavfsizlik Kengashirezolyutsiyalari xalqaro aralashuvlar uchun huquqiy asos yaratadi, ammo bu vositalarning qo'llanilishi ko'pincha siyosiy manfaatlar bilan cheklanadi. Xalqaro sudlar va tribunalarning inson huquqlarini himoya qilishdagi roli muhim bo'lsa-da, ba'zi hollarda ular xalqaro hamjamiyatning siyosiy manfaatlari tufayli sust harakat qilishi mumkin. Masalan, Suriyadagi inson huquqlari buzilishlari davomida xalqaro hamjamiyatning harakatsizligi xalqaro huquqiy vositalarning samaradorligini so'roqostiga qo'ydi.

Xalqaro sud va tribunal mexanizmlari.

Inson huquqlari ommaviy ravishda buzilgan hollarda xalqaro sud va tribunal mexanizmlaridan foydalanish fuqarolarni himoya qilishning samarali yo'llaridan biridir.

Jumladan: Xalqaro jinoyat sudi (ICC) — 1998-yilgi Rim Statutiga asoslangan bo'lib, genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar va urush jinoyatlarini amalga oshirgan shaxslarga nisbatan jinoiy javobgarlik qo'llash uchun ishlaydi.

Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi va boshqa mintaqaviy inson huquqlari sudlari inson huquqlari buzilishida jabrlangan shaxslarga adolatni tiklashimkonini beradi.

4. Xalqaro inson huquqlari tashkilotlari va ularning roli, BMT Inson huquqlari kengashi, Amnesty International, Human Rights Watch kabi xalqaro tashkilotlar inson huquqlari ommaviy ravishda buzilganda himoya vositalarini yaratishda muhim rol o'yaydi. Ular davlatlarga nisbatan monitoring, hisobot va tavsiyalar orqali bosim o'tkazadi va inson huquqlari buzilishlariga xalqaro e'tibornijalb qiladi.

Munozara

Xalqaro huquqiy vositalar inson huquqlarini himoya qilishda muhim o'rintutadi, ammo

² United Nations. (1945). Charter of the United Nations and Statute of the International Court of Justice. UnitedNations.

ularning samaradorligi xalqaro siyosatning murakkabligi bilancheklanmoqda. R2P tamoyili davlatlarning inson huquqlarini himoya qilishdagijavobgarligini mustahkamlasa-da, uning xalqaro darajadagi amaliyatda to‘laqonli qo‘llanilishi qiyin bo‘lib qolmoqda. Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari xalqaro aralashuvga huquqiy asos yaratadi, ammo ba’zan siyosiy manfaatlar buaralashuvlarning kechiktirilishiga yoki umuman amalga oshmasligiga sabab bo‘ladi. Xalqaro sudlar va tribunalarning roli inson huquqlarining buzilishiga javoban jinoyatchilarni javobgarlikka tortishda muhim ahamiyat kasb etadi, lekin ularning samaradorligi xalqaro siyosatga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Humanitaralaralashuvning xalqaro huquqiy asoslari esa aniq belgilangan bo‘limgani sababli, bu vosita ko‘pincha siyosiy manipulyatsiyaga uchraydi.³

Xalqaro hamjamiyat Birlashgan Millatlar Tashkiloti orqali, shuningdek, Nizomning VI va VIII boblariga muvofiq, aholini genotsid, urush jinoyatlari, etnik tozalash va boshqalardan himoya qilish uchun tegishli diplomatik, gumanitar va boshqa tinch vositalardan foydalanishga mas’uldir. insoniyatga qarshi jinoyatlar. Shu nuqtai nazardan, biz Xavfsizlik Kengashi orqali Nizomga, shu jumladan VII bobga muvofiq, har bir alohida holatda va tegishli mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘z vaqtida va qat’iy ravishda jamoaviy choralar ko‘rishga tayyormiz⁴. Agar tinch vositalar etarli bo‘lmasa va milliy hokimiyat o‘z aholisini genotsid, urush jinoyatlari, etnik tozalash va insoniyatga qarshi jinoyatlardan himoya qila olmasa. Biz Bosh Assambleya Xartiya va xalqaro huquq tamoyillarini hisobga olgan holda aholini genotsid, urush jinoyatlari, etnik tozalash va insoniyatga qarshi jinoyatlardan himoya qilish mas’uliyatini hamda uning oqibatlarini ko‘rib chiqishni davom ettirish zarurligini ta’kidlaymiz.

Bizning fikrimizcha, inson huquqlari ommaviy ravishda buzilgan holatlarda xalqaro huquqiy vositalarni qo‘llash borasidagi tushunchalarni yanada kengaytiradi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlarning rolini va davlatlarning javobgarligini ham ko‘rsatadi. Shuningdek, biz zaruriy va maqsadga muvofiq ravishda davatlarga o‘z aholisini genotsid, urush jinoyatlari, etnik tozalash va insoniyatga qarshi jinoyatlardan himoya qilish salohiyatini oshirishga yordam berish va inqiroz va mojarolar boshlanishidan oldin stress ostida bo‘lganlarga yordamberish niyatidamiz.

Xulosa

Davlat o‘z hududidagi inson huquqlarini ta’minalashga majburdir, ammo bu majburiyatni bajarmagan taqdirda xalqaro hamjamiyatning aralashishi zarur bo‘lishimumkin. “Himoya qilish majburiyati” tamoyili va xalqaro sudlar, tribunal mexanizmlari orqali ommaviy inson huquqlari

³ International Commission on Intervention and State Sovereignty (ICISS). (2001). The Responsibility to Protect: Report of the International Commission on Intervention and State Sovereignty. International Development ResearchCentre.

⁴ Bellamy, A. J. (2015). The Responsibility to Protect: A Defense. Oxford University Press.

buzilishlariga javob qaytariladi. Shu bilan birga, xalqaro inson huquqlari tashkilotlari huquqiy yordam ko'rsatish va insonhuquqlari himoyasini ta'minlashda muhim rol o'yndaydi. Bu vositalar insoniyatga qarshi jinoyatlarni kamaytirishga va global adolatni ta'minlashga yordam beradi.

Xalqaro huquqiy vositalar inson huquqlarini himoya qilishda hal qiluvchi vositalar hisoblanadi, ammo ularning muvaffaqiyatli qo'llanilishi xalqaro siyosiy iroda va hamkorlikka bog'liq. R2P tamoyili, BMT Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyalari, xalqaro sudlar va tribunalarning roli inson huquqlari jiddiy buzilgan hollarda xalqaro aralashuvga huquqiy asos yaratadi. Ammo bu vositalarning samaradorligi xalqaro siyosiy manfaatlar va davlatlararo munosabatlar bilan bog'liq bo'lganligi bois, ularning to'laqonli ishlashi har doim ham kafolatlanmaydi. Shu sababli, xalqaro huquqiy vositalarning samaradorligini oshirish uchun xalqaro hamjamiyat yanada mustahkam mexanizmlar ishlab chiqishi kerak.

REFERENCES

1. Weiss, T. G. (2007). Humanitarian Intervention: Ideas in Action. PolityPress.
2. Deng, F. M., Kimaro, S., Lyons, T., Rothchild, D., & Zartman, I. W. (1996). Sovereignty as Responsibility: Conflict Management in Africa. Brookings Institution Press.
3. Tesón, F. R. (2005). Humanitarian Intervention: An Inquiry into Law and Morality. Transnational Publishers.
4. United Nations. (2012). Responsibility to Protect: State Responsibility and Prevention. United Nations.
5. Hehir, A. (2013). Humanitarian Intervention: An Introduction. Palgrave Macmillan.
6. Forsythe, D. P. (2012). Human Rights in International Relations. Cambridge University Press.
7. Cassese, A. (2005). International Law. Oxford University Press.
8. Simma, B., Khan, D. E., Nolte, G., & Paulus, A. (2012). The Charter of the United Nations: A Commentary. Oxford University Press.
Foydalangan Internet manbalari !
 1. Google.com
 2. Arxiv.uz
 3. Yandex.uz